

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB
TA’LIMI VAZIRLIGI**

100011, Toshkent, Navoiy ko‘chasi, 2a-uy
Tel.: (+998) 55 503-74-00
web-site: www.uzedu.uz, e-mail: uzedu@exat.uz



**MINISTRY OF PRESCHOOL AND
SCHOOL EDUCATION OF THE
REPUBLIC OF UZBEKISTAN**

2a, Navoiy Street, Tashkent, 100011
Tel.: (+998) 55 503-74-00
web-site: www.uzedu.uz, e-mail: uzedu@exat.uz

« 8 » yanvar 2024-y.

03-06/2-83- son

« ___ » _____ 2024 y.

**Qoraqalpog‘iston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi
vazirligi, Toshkent shahar
va viloyatlar maktabgacha va
maktab ta’limi boshqarmalariga**

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-dekabrda
“Aholining ijtimoiy himoya olish huquqlarini ta’minlash hamda davlat ijtimoiy yordami
va xizmatlarini ko‘rsatish tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston
Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish
to‘g‘risida”gi 705-son qaroriga asosan Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-oktabrdagi
638-son qarori bilan tasdiqlangan “Umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarida inklyuziv ta’limni
tashkil etish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga tegishli o‘zgartirish va qo‘shimchalar
kiritilgan bo‘lib, bunda mazkur Nizomning 26-bandidagi “inklyuziv ta’lim sinflari va”
so‘zlari “inklyuziv ta’lim sinflari yoki” so‘zlari bilan almashtirilgan.

Ushbu qaror bilan endilikda har bir inklyuziv ta’lim sinflari yoki boshlang‘ich
tayanch korreksion sinflar ochilgan umumtalim maktablariga alohida maxsus pedagog
shtat birligi ajratilishi nazarda tutilmoqda.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, **Sizdan:**

mazkur qarorga asosan maxsus pedagog shtat birligi ajratishni;

maxsus pedagog shtat birligini ajratilishi munosabati bilan 2024-yil uchun
tasdiqlangan shtatlar jadvaliga tegishli o‘zgartirishlar kiritishni;

ushbu maktablarga ishga qabul qilingan maxsus pedagoglarga qonunchilik
hujjatlariga muvofiq oylik ish haqlarini o‘z vaqtida to‘lab borilishini ta’minlashingiz
so‘raladi.

Vazir o‘rinbosari



T.Komilov

Ijrochi: G.Toshmirzaeva
Tel: 55 503-74-00 (4063)

info@uzedu.uz



O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab
ta’limi vazirligi



www.uzedu.uz



t.me/uzedu



facebook.com/uzedu



instagram.com/uzedu.uz